

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifiga doir



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan joriy yil 18-oktyabr kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keladi.

Davlat rahbarlari muntazamlik kasb etgan siyosiy muloqotning davomi sifatida O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar holati yuzasidan fikr almashadilar, strategik sheriklik va ittifoqchilikni yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, turli sohalarda yangi qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish istiqbollarini muhokama qiladilar.

Tashrif kun tartibidan dolzarb xalqaro masalalar, jumladan, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish jarayoniga ko'maklashish masalalari ham o'rin olgan.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi doirasida ilk bor Ta'lim forumi va "O'zbekiston –Rossiya" hududlararo hamkorlik forumi o'tkaziladi, shuningdek, mamlakatimizda atom elektr stansiyasi qurilishi boshlanishiga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tadi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida davlat rahbarlarining Qo'shma bayonotini qabul qilish, 2019-2024 yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2019-2021 yillarda madaniy-gumanitar sohada hamkorlik dasturi, O'zbekistonda Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risidagi kelishuv, "Suffa" xalqaro radioastronomik observatoriyasini tashkil etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" va boshqa muhim ikki tomonlama hujjatlar imzolanishi ko'zda tutilgan.

Tashrif asnosida, shuningdek, O'zbekiston bilan Rossiya hududlari va ishbilarmon doiralari o'rtasida yirik investitsiya va savdo shartnomalarining imzolanishi kutilmoqda.

[O'ZA](#)